

## ALISHER NAVOIYNING „MAJOLIS UN-NAFOIS” ASARINING ADABIYOTDAGI O’RNI

**Maxsudova Mavluda Shukurullo qizi**

Farg’ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

**ANNOTATSIYA:** Alisher Navoiy tomonidan yaratilgan Majolis un-nafois — turkiy adabiyot tarixida mukammal tazkiralardan biri bo‘lib, o‘z davri ijodkorlarining hayoti, ijodi va ma’naviy dunyosini chuqur aks ettiradi. Asarda qariyb ikki yuzga yaqin shoirlar haqida ma’lumot berilishi, ularning badiiy mahorati, she’riy uslubi va shaxsiy fazilatlari nozik kuzatuv bilan tasvirlanishi tufayli „Majolis un-nafois” o‘zbek adabiyoti uchun beqiyos manba hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, tazkira, o‘zbek adabiyoti, “Majolis un-nafois”, nasr, nazm.

Navoiyning butun faoliyati va ijodiyoti insoniyatning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, san’at va adabiyot taraqqiyotiga bag‘ishlanadi. U ulug‘ insonparvar, donishmand, davlat arbobi, o‘zbek adabiy tiliga asos solgan va o‘zbek adabiyotini yangi taraqqiyot pog‘onasiga ko‘targan buyuk so‘z san’atkori hisoblanadi. Darhaqiqat, Navoiyning ijodi, uning umri davomida xalq uchun qilgan xizmatlari tahsinga loyiq. Xususan, uning umri davomida yaratilgan “Majolis un-nafois” asari ham shular jumlasidan. Asar 1491-yilda yozilgan bo‘lib, qo‘shimcha va yangiliklar kiritilgan holda 1497-1498-yillarda ikkinchi nusxasi yaratildi. Asarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u o‘zbek adabiyotida ilk tazkirachilikka asos solingan asar hisoblanadi.

Bundan tashqari, Navoiy bu asarda shoir va yozuvchilarning ijodini emas, ularning ijtimoiy ahvoli, kelib chiqishi, hayotidagi muhim voqealar haqida ham qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirgan. “Tazkira” arabcha so‘z bo‘lib, “ziker”, ya’ni

“eslatib o‘tish”, “yozib qo‘yish” ma’nosini anglatadi. U shoirlarning hayoti va ijodi haqida eng muhim ma’lumotlar, asarlaridan namunalar keltirilgan antologiya-majmuadir.

Tazkiraning adabiyotdagi eng katta o‘rni shundaki, u o‘zbek adabiyotida adabiy portret, adabiy tavsif, tanqidiy baholash kabi janrlarning shakllanishi va mustahkamlanishiga zamin yaratgan. Navoiy o‘z zamondoshlariga chuqur hurmat bilan qaraydi, biroq badiiy mezonlardan chekinmaydi. Shoirlarning kuchli tomonlari bilan birga, kamchiliklarini ham nozik ohangda ko‘rsatadi. Bu yondashuv o‘zbek adabiy tanqidchiligining tarixiy ildizlarini belgilaydi. Bundan tashqari, Majolis un-nafois o‘z davri madaniy hayoti, adabiy davralari, saroy muhitidagi ijodiy jarayonlar, turli adabiy maktab va an’analarning qiyofasini tiklaydigan tarixiy manba sifatida ham beqiyos qimmatga ega. Asardagi ma’lumotlar orqali o‘sha davr shoirlarining bir-biriga ta’siri, ularning ijodiy raqobati, badiiy yo‘nalishlardagi farqlar va o‘xshashliklar haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Navoiyning bu asari turkiy tazkirachilikning poydevorini qo‘ygan bo‘lib, keyingi asrlar tazkiralariga — Riyoziy, Sam’iy, Ogahiy, Munis va boshqa adiblarning asarlariga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Shuning uchun ham Majolis un-nafois faqat o‘z davrining emas, balki keyingi asrlar adabiy jarayonining ham rivojlanishiga xizmat qilgan ulkan ilmiy-badiiy meros hamdir.

Tazkira milliy va o‘zaro yaqin adabiyotlar tarixini yaratishda, muayyan davr adabiy muhitini o‘rganishda, alohida adabiy siymolar va asarlarni tadqiq etishda adabiyotshunoslikning benazir janri sifatida xizmat qiladi. Bu kabi asarlarning yaratilishi adabiyotga juda ham katta yordam beradi. Sababi adabiyot faqat badiiy asarlar bilan emas, ilmiy-tanqidiy asarlar bilan ham taraqqiy etadi. Shuning uchun ham o‘zbek adabiyotida “Majolis un-nafois”dek mukammal tazkira zarur edi va bu ishni Alisher Navoiy maromiga yetkazib amalga oshirdi. “Majolis un-nafois” tazkirasi o‘zbek adabiyotining rivoji uchun katta mayoq vazifasini o‘tadi. Bundan tashqari, asar boshqa xalqlar adabiyotiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Masalan, “Majolis un-nafois” tazkirasi fors tiliga Faxri Hiraviy tomonidan “Latoyifnoma” sarlavhasi bilan Hirotda, Hakimshoh Muhammad Qazviniy esa uni Onado‘lidaforschaga o‘giranlar.

Hazrat Alisher Navoiy tomonidan yaratilgan turkiy tazkirachilik maktabi XX asr boshlariga qadar nafaqat Turkiston yoki Markaziy Osiyoda, balki Eron, Hindiston, Afg'oniston, Ozarbayjon hamda Turkiyada muvaffaqiyat bilan davom etgan. O'tgan 500 yildan ortiqroq vaqt davomida yaratilgan tazkiralarda "Majolis un-nafois" ning izlarini ilg'ash qiyin emas. Birgina Onado'lida turkey tilda 36 tazkira yaratilgan bo'lib, bular, asosan, "Shoir tazkiralari"dir. Shundan 12 tazkirada Hazrat Navoiy shaxsi tilga olingan, uning ijodiga munosabat bildirgan. Mazkur tazkiradagi ma'lumotlarga ko'ra, Usmonli shoirlaridan 70 dan ortig'i Navoiyning she'riy asarlariga naziralar yozganlar, ulardan 30 dan ortig'i ham bu an'anani izchil davom ettirgan. Ayni mana shu ijodiy vorislikni xamsanavislik doirasida, ulug' adib nasriy va tazkirachilikka oid asarlaridan ta'sirlanish jarayonida ham kuzatish mumkin. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" asarining ta'siri haqida professor Mustafó Eson shunday yozadi: "Hazrat Alisher Navoiy boshqa ko'plab tazkiralarga namuna bo'larlik asar yaratgani bilan ahamiyatlidir... Muhimi, tazkiralarning Onado'lida paydo bo'lishiga ta'siri, ya'ni bu tazkiralarga andozalik vazifasini bajarishidir. Yanada to'g'rirog'i, Hirot maktabi tazkiralari sifatida nom olgan Jomiy, Davlatshoh va Navoiy hazratlarining asarlari keyinroq Usmonli o'lkasida paydo bo'lgan tazkirai shuaro janriga teran ta'sir etib, adabiy biografiya rivojini tezlashtiradi... Butun XVI asr tazkiralarda Navoiy an'analari davom etdi." Bundan bilish mumkinki, bu asar keyingi davrlarda boshqa tillarga tarjima qilingan va ko'plab nusxalari chop etilgan. XVI asrning o'zida "Majolis un-nafois" ning fors tiliga 3 marta tarjima qilinganligi Movarounnahr, Eron, Turkiyada tazkiraga zo'r qiziqish bilan qaralganligidan dalolat beradi. Xulosa, qilib aytishimiz mumkinki, "Majolis un-nafois" o'zbek adabiyotining tarixiy xotirasi, adabiy muhitning ma'naviy ensiklopediyasi, Navoiy tafakkurining keng ko'lamini aks ettiruvchi durdona asar hisoblanadi. U bugungi kunda ham adabiyotshunoslar, tadqiqotchilar va ijodkorlar uchun asosiy manba, o'tmishdan kelayotgan ilmiy saboq bo'lib xizmat qilmoqda. tazkirachilik sohasiga qo'shgan hissasi bugungi kun adabiyotining keng ko'lamli bo'lishiga, boy namunalarning ko'payishiga hamda

adabiyotimiz tarixining yo‘olib ketmasligiga sabab bo‘lib kelmoqda. Bunday durdona asarlarni asrab-avaylash, ularning yangi qirralarini kashf etish esa bizning qo‘limizda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

- 1.G‘aniyeva S. Alisher Navoiy.- Toshkent. O‘zbekiston, 2015. 99- bet.
- 2.Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at. – Toshkent. Sharq, 2016. II tom. 12-bet.
- 3.Hamidulla Boltaboyev. Turkiy tazkiralarda Alisher Navoiy siymosi „Jahon adabiyoti“ jurnali, 2013. 2-son.
4. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. –Toshkent, 1976.- 659 b.